

Akademik litseylarga kirish test sinovlari o'tkazilish sanasi va vaqti aniq bo'ldi



Akademik litseylarga hujjat topshirgan o'quvchilar va ularning ota-onalari diqqatiga!



Kirish test sinovlari **25-26-iyul kunlari** Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan maxsus belgilangan hududlarda **ikki smenada** o'tkaziladi.



Test sinovlarini o'tkazilish vaqti:



25-iyul kuni – 1 smenada o'tkazilib, soat 15:00 da;



26-iyul kuni 2 smenada o'tkazilib:



1- smena soat 9:00 da;



2- smena soat 15:00 da boshlanadi.

Akademik litseylarga hujjat topshirgan abituriyentlar **test sinovlariga kirish ruxsatnomasini:**



my.edu.uz saytidagi shaxsiy kabinetiga o'zining login va paroli bilan kirgan holda yuklab olishi;



yoki bevosita hujjat topshirgan **akademik litseydan borib olishi** mumkin.



Abituriyentlardan test sinovi o'tkaziladigan hududga belgilangan vaqtdan **kamida 1 soat oldin shaxsini tasdiqlovchi hujjat va test sinovida ishtirok etish uchun ruxsatnoma** bilan kelishlari so'raladi.